

TURDOSH HUQUQLAR VA ULARNING AMAL QILISH SOHASI

Qodirjon Yusupov

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
magistratura bosqichi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11128056>

Annotatsiya. Ushbu maqolada turdosh huquqlarning amal qilish sohasi, turdosh huquqlar obyektlari, turdosh huquqlar subyektlari, turdosh huquqlarning muhofaza belgilari, ijrochining huquqlari, ijrochining huquqlarini boshqa shaxsga o'tkazish, fonogrammani tayyorlovchining huquqlari, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning huquqlari, turdosh huquqlarning amal qilish muddati, turdosh huquqlar obyektlarining ijtimoiy mulkka aylanishi va shu kabi boshqa holatlar tahlil qilingan holda bayon etiladi.

Kalit so'zlar. Turdosh huquqlar, fonogramma, "R" harfi, ijro yozuvi, efir, huquqiy voris, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv, retranslatsiya.

RELATED RIGHTS AND THEIR SCOPE

Abstract. In this article, the scope of related rights, objects of related rights, subjects of related rights, signs of protection of related rights, rights of the performer, transfer of the rights of the performer to another person, rights of the producer of the phonogram, rights of the organization that broadcasts or broadcasts on air or cable, related the period of validity of the rights, the transformation of objects of similar rights into social property and other similar cases are described with analysis.

Keywords: Related rights, phonogram, letter "R", performance recording, broadcast, legal successor, broadcast or cable broadcast, retransmission.

СМЕЖНЫЕ ПРАВА И ИХ ОБЪЕМ

Аннотация. В данной статье рассматриваются объем смежных прав, объекты смежных прав, субъекты смежных прав, признаки охраны смежных прав, права исполнителя, переход прав исполнителя к другому лицу, права исполнителя. Анализируются производитель фонограммы, права организации, осуществляющей передачу или передачу в эфир или по кабелю, срок действия смежных прав, превращение объектов смежных прав в общественную собственность и другие подобные случаи.

Ключевые слова: Смежные права, фонограмма, буква «Р», запись исполнения, передача в эфир, правопреемник, передача в эфир или по кабелю, ретрансляция.

Intellectual faoliyat mahsullari orasida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlari alohida ajralib turadi. Bu alohidalik ijodkor-muallif huquqiy maqomida ham, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyekti bo'lgan fan, adabiyot, san'at asarlari, ijrochilik faoliyati huquqiy rejimida ham o'z ifodasini topgan. Jahonda turli mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-madaniy aloqalar o'sib borgani sayin bir mamlakatdagi ijodkorlar asarlaridan boshqa mamlakatlardagi kishilar foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda, bu esa mualliflik va turdosh huquqlar dunyoning ko'p mamlakatlarida bir xilda tartibga solinishiga bo'lgan zaruratni vujudga keltirmoqda.

Soha mutaxassislaridan, xususan Kazlen Valch hatto eng murakkab va kuchli sun'iy intellekt ham tirik mavjudot emas, balki oddiy texnika bo'lib qoladi yoki boshqa qilib aytganda

ixtirochilarning qo‘lidagi asbob ekanligini hisobga olsak, intellectual mulk huquqlari faqat jismoniy va yuridik shaxslarga berilishi mumkin, deb ta’kidlaydi.

Shuningdek, Maria Diazning fikricha, sun’iy intellekt inson ishtirokisiz mustaqil ravishda asar yaratish qobiliyatiga ega emasligi sababli, sun’iy intellektning orqasida aynan inson ijodkorlik huquqiga ega bo‘lishi lozimdir. Gabrielening so‘zlariga ko‘ra, agar sun’iy intellektga intellektual mulk huquqlarini berish yuzasidan ko‘rib chiqish kerak bo‘lsa ham, hozir vaqti emas, chunki sun’iy intellekt uni ko‘rib chiqish kerak bo‘lgan rivojlanish darajasiga chiqmagan.

Shu o‘rinda biz turdosh huquqlar o‘zi nima, obyekt va subyekt, turdosh huquqlarning muhofaza qilishi kabi holatlarga oydinlik kiritib olishimiz lozim hisoblanadi¹.

Bizga ma’lumki, ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko‘rsatuvlari yoki eshittirishlar turdosh huquqlar deb hisoblanadi.

“Ijrochining huquqlari quyidagi shartlardan biriga rioya etilgan taqdirda, ushbu Qonunga muvofiq unga tegishli deb e’tirof etiladi:

ijrochi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lsa;

ijrochining fuqaroligidan qat’i nazar, ijro birinchi marta O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilgan bo‘lsa;

ijro ushbu moddaning ikkinchi qismi qoidalariga muvofiq muhofaza qilinadigan fonogrammaga yozilgan bo‘lsa;

fonogrammaga yozilmagan ijro ushbu moddaning uchinchi qismi qoidasiga muvofiq efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning muhofaza qilinadigan ko‘rsatuv yoki eshittirishiga kiritilgan bo‘lsa.

Fonogrammani tayyorlovchining huquqlari quyidagi shartlardan biriga rioya etilgan taqdirda, ushbu Qonunga muvofiq unga tegishli deb e’tirof etiladi:

fonogrammani tayyorlovchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi yoki O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan yeriga ega bo‘lgan yuridik shaxs bo‘lsa;

fonogrammani tayyorlovchining fuqaroligi yoki joylashgan yeridan qat’i nazar, fonogramma birinchi marta O‘zbekiston Respublikasi hududida chop etilgan bo‘lsa.

Efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning huquqlari, agar tashkilot O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan yeriga ega bo‘lsa hamda efirga uzatish yoki kabel orqali yuborishni O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uzatgichlar yordamida amalga oshirayotgan bo‘lsa, ushbu Qonunga muvofiq mazkur tashkilotga tegishli deb e’tirof etiladi.

Chet el yuridik va jismoniy shaxslarining O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida muhofaza qilinadigan turdosh huquqlari ham ushbu Qonunga binoan e’tirof etiladi”².

turdosh huquqlar subyektlari ijrochilar, fonogrammalarni tayyorlovchilar, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlar hisoblanadi.

¹ Gabriele (2021), Patent Systems and Artificial Intelligence: Towards a New Concept of Inventorship? Zenodo, <https://doi.org/10.5281/zenodo.5720649> .

² Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida/O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 20.07.2006-yildagi O‘RQ-42-son/43-modda.

Turdosh huquqlarning yuzaga kelishi va amalga oshirilishi uchun turdosh huquqlar obyektini ro'yxatdan o'tkazish yoki biron-bir boshqa rasmiyatchilikka rioya etish talab qilinmaydi.

Turdosh huquqlar postanovkalarga, ijrolarga, ijrolarning yozuvlariga, ko'rsatuvlar/eshittirishlarni efir va kabel orqali uzatish tashkilotlarining ko'rsatuv va eshittirishlariga tarqatiladi.

“Shuni nazarda tutish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlarni muhofaza qilish va himoya qilish sohalarida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organi bo'lib, Intellektual mulk agentligining barcha huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi”³.

Ijrolarga bo'lgan huquqlar ijro etuvchilar – artistlar, sahnalashtiruvchi rejisserlar, dirijerlar va ularning merosxo'rlariga tegishli bo'ladi. Bunday ijrolardan foydalanish huquqi boshqa huquq vorislariga o'tishi mumkin.

Ijro yozuviga bo'lgan huquq bunday yozuvni yaratgan shaxsga yoki uning huquq vorisiga tegishlidir. Translatsiyaga bo'lgan huquq ko'rsatuv/eshittirishni yaratgan efirga uzatish tashkilotlariga tegishlidir. Jamiyat manfaatlarini kengroq ta'minlash, dunyoda sodir bo'layotgan voqea va hodisalardan xabardor bo'lish uchun mualliflik huquqi cheklanishi mumkin. Ayrim asarlarga nisbatan mualliflik huquqi tadbiiq qilinmasligi mumkin. Mualliflik huquqini muhofaza qilish muddati tugagandan keyin asar ijtimoiy mulkka aylanadi va bunday asardan barcha erkin foydalanishi mumkin.

Mazkur cheklashlar asardan normal foydalanilishiga o'rinsiz ziyon yetkazmagan va muallifning qonuniy manfaatlarini asossiz kamsitmagan taqdirdagina tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 27-moddasidagi o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarning fan, adabiyot yoki san'at asarining, ixtironing yoxud o'z intellektual faoliyatining qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa natijasi muallifi huquqining vudga kelishini 29-moddasiga ko'ra: Olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi bolalar quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar:

- 1) mayda maishiy bitimlar;
- 2) tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlar;
- 3) qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag'larni tasarruf etish borasidagi bitimlar.

Ushbu moddaga to'rtinchi band sifatida fan, adabiyot yoki san'at asarining, ixtironing yoxud o'z intellektual faoliyatining qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa natijasi muallifi huquqini amalga oshirish deb o'zgartirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki hozirgi zamonaviy dunyoda axborot almashinuvi jadallik bilan rivojlanyapti va o'n to'rtga yoshga to'lmagan bolalar ham turli xil ixtiro, qo'shiq, musiqa, san'at asarlari yoki boshqa intellektual faoliyat natijasining mualliflari bo'lishyapti, buning natijasida ushbu intellektual faoliyat natijalari himoya qilinishi kerak, aks holda o'zgalor tomonidan mualliflarning ushbu huquqlari buzib foydalanishlari mumkin. Biroq mamlakatimizda o'n to'rt yoshga to'lmagan bolalar intellektual faoliyat natijalarini yaratsa, ularda

³ Inagamova M.M Ayol huquqlarini himoya ilishda ichchki ishlar organlari ishtirokining huquqiy mexanizlarini takomillashtirish Scienceweb academic papers collection.

mualliflik huquqlari vujudga kelmaydi. Agar bolalarga ular maktabga borganliklaridan mualliflik huquqi nimaligini, u boshqalar mehnati mahsuli ekanligini, uni o'zboshimchalik bilan o'zlashtirish mumkin emasligi tushuntirilsa, odamlarning huquqiy madaniyati hozirgidan ko'ra yaxshiroq bo'lardi. Bundan tashqari, mualliflik huquqlari intellektual faoliyat tarkibiga kirganligi uchun hozirgi kunda O'zbekistonda amaldagi sudlarga qo'shimcha ravishda yangi, intellectual mulk masalalariga ixtisoslashgan sudlarni institutini shakllantirish kerak⁴.

Turdosh huquqlarning amal qilish muddati haqida fikr yuritadigan bo'lsak, unga ko'ra ijrochiga nisbatan nazarda tutilgan huquqlar ijro birinchi marta ijro etilgandan keyin ellik yil mobaynida amal qiladi.

Ijrochining ismi-sharifga bo'lgan hamda ijroni ijrochining sha'ni va qadr-qimmatiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday tarzda buzib ko'rsatilishidan yoki har qanday boshqacha tarzda tajovuz etilishidan himoya qilish huquqlari muddatsiz muhofaza qilinadi.

Fonogrammani tayyorlovchiga nisbatan nazarda tutilgan huquqlar fonogramma birinchi marta chop etilganidan keyin ellik yil mobaynida yoxud, agar fonogramma uning birinchi yozuvidan keyin ellik yil ichida chop etilmagan bo'lsa, shu muddat mobaynida amal qiladi.

Efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning o'z ko'rsatuvi yoki eshittirishiga nisbatan nazarda tutilgan huquqlari bunday ko'rsatuv yoki eshittirish birinchi marta efirga uzatilganidan yoki birinchi marta kabel orqali yuborilganidan keyin ellik yil mobaynida amal qiladi.

Turdosh huquqlar obyektlariga O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq muhofaza berilganda O'zbekiston Respublikasi hududida turdosh huquqlarning amal qilish muddati ushbu moddaga binoan belgilanadi. Lekin bu muddat turdosh huquqlar obyektlari kelib chiqqan mamlakatda belgilangan turdosh huquqlarning amal qilish muddatidan oshib ketmasligi kerak.

Ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlarni hisoblash muddatning o'ta boshlashi uchun asos bo'ladigan yuridik fakt ro'y bergan yildan keyingi yilning birinchi yanvaridan e'tiboran boshlanadi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlarning qolgan qismi doirasida ijrodan, fonogrammadan, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning ko'rsatuvi yoki eshittirishidan foydalanishni amalga oshirish yoxud foydalanishga ruxsat berish va haq olishga bo'lgan huquq ijrochining, fonogrammani tayyorlovchining, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning merosxo'rlariga (yuridik shaxslarga nisbatan — huquqiy vorislariga) o'tadi⁵.

Shuni nazarda tutish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni muhofaza qilish va himoya qilish sohalarida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organi bo'lib, Intellektual mulk agentligining barcha huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi⁶.

⁴ Sharifxodjayev M. Formirovaniye otkritogo grajdanskogo obshestva v Uzbe kistane. – T., 2002 101-bet

⁵ <https://lex.uz/ru/docs/-1022944#-1023271>

⁶ Egamberdieva N.X.. Delikt majburiyatlarning xuquqiy tabiyati O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari axboratnomasi.

Bizning fikrimizcha, hozirgi kunda chet davlatlar ijrolari va musiqualardan ko'chirib olingan intellektual mulk obyektlariga ham davlat nazoratini ta'minlash lozim, hozirgi qonunchiligimizda yuridik yoki jismoniy shaxs qachonki ariza bilan murojaat qilgandagina o'zining intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlarini himoya qilishi mumkinligi nazarda tutilgan. Ushbu qonun hujjatlariga qo'shimcha sifatida davlat o'z tashabbusi bilan chet eldan kirib kelayotgan noqonuniy intellektual mulk ob'ektlarini himoya qilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi va intellektual mulk sohasini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan bo'lar edi deb hisoblaymiz.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-sonli «Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyundagi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni 42-son Qonuni.
3. Dadasheva A.A. INSON HUQUQLARI BO'YICHA XALQARO INSTITUTLAR (2023) Innovatsionnye issledovaniya v sovremennom mire: teoriya i praktika 2 (17), 87-90
4. Kasimova A.A Роль женщины в современной науке Society and innovations/in Science LLC 8 (08/2023), 226-234
5. Egamberdieva N.X. Delikt majburiyatlarning xuquqiy tabiyati O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari AXBORATNOMASI
6. Inagamova M.M Ayol huquqlarini himoya ilishda ichchki ishlar organlari ishtirokining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish Scienceweb academic papers collection
7. Sharifovna, Y. N. (2021). Theoretical Fundamentals of Spiritual Culture Research. American Journal of Social and Humanitarian Research, 2(9), 111-115.
8. Dadasheva A.A. Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari - Academic research in educational sciences, 2022
9. <https://lex.uz/ru/docs/-1022944#-1023271>